

## VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN QO'LLANILADIGAN BOSHQA JINOIY-HUQUQIY TA'SIR CHORALARI QO'LLASHNING XORIJ TAJRIBASI.

Qo'shiyev Mirjalol Saidvali o'g'li  
Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti.  
E-mail. [mirjalolqoshiyev@gmail.com](mailto:mirjalolqoshiyev@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, ularni majburlov choralari qo'llagan holda jazodan ozod etish, qayta tarbiyalash uchun jinoiy-huquqiy ta'sir choralari qo'llash, xorijiy davlatlarda voyaga yetmagan huquqbuzar uchun qo'llaniladigan ta'sir choralarni tahlil etish va shu asnoda milliy qonunchilikni takomillashtirish borasida xulosalar qilingan.

**Abstract:** The article deals with the criminality of minors, their release from punishment using coercive measures, the use of criminal-legal measures for re-education, the analysis of the measures of influence applied to minor offenders in foreign countries, and in this context, the national legislation conclusions about improvement were made.

**Аннотация:** В статье рассматривается преступность несовершеннолетних, их освобождение от наказания с применением мер принуждения, применение уголовно-правовых мер для перевоспитания, анализ мер воздействия, применяемых к несовершеннолетним правонарушителям в зарубежных странах, и в этом контексте Сделаны выводы национального законодательства об улучшении ситуации.

**Kalit so'zlar:** voyaga yetmagan, islohot, majburlov ta'sir choralar, yetkazilgan zararni qoplash, jinoyat, javobgarlik, uzr so'rash.

### KIRISH

Yoshlar orasida huquqbazarliklarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha muhim maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda va ularning qatorida jinoiy javobgarlik choralari ham mavjud bo'lib, bu voyaga yetmaganlarning jinoyatlari uchun davlat tomonidan jazoga tortish usulidir. Shu boisdan ularni qayta tarbiyalash maqsadida majburlov choralari qo'llaniladi. Jinoiy huquqiy ta'sir choralari JK umumiy qismining XVI bobida alohida sanab o'tilgan. Bular quyidagilar hisoblanadi;

a) jabirlanuvchidan belgilangan tartibda uzr so'rash;

b) 16 yoshga to'lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o'z mablag'i yoki mehnati hisobidan to'lash;

c) voyaga yetmaganlarni maxsus o'quv tarbiya kaloniyasiga joylashtirish [1].

Yoshlarni huquqlarini himoya qilish nafaqat O'zbekiston Respublikasining balki xalqaro hamjamiyatning asosiy va birlamchi maqsadidir. Ularning huquqlarini himoya qilish uchun turli xil huquqiy mexanizmlarlar ishlab chiqilmoqda. hozirgi kunda davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning eng bosh maqsadi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan voya yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo choralarini liberallashtirishdan iborat bo'lmoqda. O'zi bilib yoki bilmay huquqbazarlik sodir etib qo'ygan yoshlarni qayta tarbiyalash, ularni jamiyatdan ajratmagan holda turli xil ta'sir choralarini ko'rishni davlat o'ziga ustuvor vazifa

qilib olgan. Qariyb barcha davlatlarda voyaga yetmagan huquqbuzarlar jazo obyekti sifatida emas, balki ijtimoiy reabilitatsiya subyekti hisoblanadi. Darhaqiqat, ozodlikdan mahrum qilish joylarida voyaga yetmagan shaxs og'irroq jinoyatlar uchun sudlangan yoki g'ayriijtimoiy qarashlari mustahkam boshqa o'smirlar ta'siriga tushishi, uning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiydir. Bu o'rinda ta'kidlash joizki, aynan voyaga yetmaganlar uchun tayinlangan jazo uni jazolash emas, balki tarbiyalash vazifasini amalga oshirishi lozim [2]. Bu fikrlar juda to'g'ri hisoblanadi. Ozodlikdan mahrum etish joylaridagi voyaga yetmagan shaxslarning qayta tarbiyalanish darajasi ancha past hisoblanadi, ular uchun huddi u yer jinoyat matabiga aylanib qolishi mumkin.

Shu o'rinda jinoyat qonunchiligin liberallashtirishda turli xorijiy davlarlar qonunchiliklarini o'rganishimiz va ularning jazolash va javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish bilan bog'liq yutuqlarini jinoyat qonunchiligmizga tadbiq etsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Belgiya qirolligida o'n sakkiz (18) yoshga yetmagan shaxs jinoyat huquqida jinoyat subyekti bo'la olmaydi va ularga nisbatan Jinoyat kodeksi[3]da nazarda tutilgan jazo choralar tadbiq etish mumkin emas, lekin ular 1965-yil 8-aprelda qabul qilingan "Yoshlarni himoya qilish to'g'risidagi" qonunning qoidalariga amal qilgan holda ish tutadi va ularning jinoyatlari yoshlar sudlari tomonidan hal etildi. Ammo, agar jinoyatchi voyaga yetmagan shaxs o'n olti yoshdan oshgan bo'lsa, ularning ishlari muayyan hollarda oddiy sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

Yoshlarni himoya qilish to'g'risidagi qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar quyidagilar,

- voyaga yetmagan shaxsni ota-onasiga yoki uning vasiyligida bo'lgan shaxslarga uni yaxshiroq nazorat ostiga olish to'g'risida buyruq bilan birga tanbeh berish;

- yosh huquqbuzar muntazam ravishda maktabga qatnab, o'zining yoshi va imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan ta'lim yoki xayriya xizmatini amalga oshirish, yoshlarni himoya qilish qo'mitasi yoki yoshlarni himoya qilish bo'yicha delegatning nazorat qilishi va bundan tashqari psixolog maslahatlarini olish;

- yoshlarni himoya qilish qo'mitasi yoki yoshlarni himoya qilish bo'yicha delegat nazorati ostida homiylik ostidagi oilaga yoki tegishli muassasaga joylashtirish;

- ixtisoslashtirilgan markazga joylashtirish[4].

Fikrimizcha, ushbu davlatning voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlari uchun jazo tayinlash siyosatini barcha davlatlar o'rganishi va o'z davlatida joriy etishi kerak bo'lgan mexanizm hisoblanadi. Sababi, voyaga yetmagan bolalar bilan alohida ishlaydigan Yoshlarni himoya qilish qo'mitasi va Yoshlarni himoya qilish bo'yicha delegat kabi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar hamda nazoratga olinadigan bolalar uchun Homiy oila dasturi ishlab chiqilganligi va shu dastur orqali jinoyat sodir etgan yoshlarni oila bilan ta'minlash eng muhim ishlardan biri hisoblanadi. Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyada belgilab qo'yilgan bolaning birlamchi ehtiyojlari va manfaatlari ta'minlanmoqda.

Rivojlangan davlatlarning tajribasidan, xususan, AQSh, Italiya, Braziliya, Rossiya, Norvegiya, Qozog'iston va Qirg'izistonda jinoyat sodir etgan shaxslarni, maxbuslarni kitobxonlik bilan tanishtirish e'tibor qaratilgan. Masalan, Braziliya tajribasida kitoblar

mahbuslarning tezroq chiqib ketishiga yordam beradi, ya'ni: har bir o'qilgan matn (ilmiy, falsafiy yoki badiiy) uchun qolgan muddat 4 kunga qisqartiriladi. Bitta kitobni o'qish uchun to'rt haftagacha vaqt ajratiladi, shundan so'ng o'qilgan kitob doirasida insho yozishi kerak. Ish maxsus komissiya tomonidan baholanadi. Rossiya va Germaniyada voyaga yetmagan huquqbuzarga tarbiyaviy ta'sir etish va ularning xulq-atvorini nazorat ostiga olish uchun ota-onalarga yoki ularning o'rnini bosuvchi boshqa shaxslarga yoxud ixtisoslashtirilgan muayyan davlat organiga javobgarlikni yuklash, Angliyada voyaga yetmaganni belgilangan ta'lim dasturlarida qatnashish, Shvetsiyada voyaga yetmagan shaxsni harakatlarini kuzatish uchun elektron bilak uzuk taqish majburiyati yuklatilgan, Germaniyada ularni yashash joyidan ajratmagan holda o'quv mashg'ulotlarda qatnashishga, ma'lum shaxslar muloqot qilishni va ma'lum joylarga borishni taqilash, Fransiyada ta'lim yoki kasb-hunar o'rgatish uchun davlat yoki xususiy muassasaga joylashtirish va AQSh, Italiya, Braziliya, Norvegiyada jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxslarni, maxbuslarni kitobxonlik bilan tanishtirish kabi turlari bolalarni qilmishlarini anglab yetish va qayta bu huqubzavarliklarni sodir etishni oldini olishda eng yaxshi ta'sir choralar hisoblanadi. Xorijiy davlatlarning qonunchiligidan voya yetmaganlar masalalariga doir qonunlar o'rganilganda bizning qonunchiligidizdan bir qancha farqli tomonlari borligiga va bazi davlatlarda ta'sir choralar yoshlarga nisbatan aniq belgilab qo'yilganiga guvohi bo'ldik.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

O'zbekiston Respublikasi qonunchilagini, xorijiy davlatlar qonunlari tahlili hamda statistik ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali voyaga yetmaganlarning ijtimoiy xavfli qilmishlari uchun tayinlanadiga jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini qo'llash institutini takomillashtirish lozimdir. Xorijiy mamlakatlar qonunchilagini o'rganish orqali ushbu davlatlar yutuqlarini va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ta'sir choralarining qiyosiy tahlil qilish kerak. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan ta'sir choralar JK ning 88-moddasida keltirilgan majburlov choralar hozirgi vaziyatga mos tushish yoki tushmasligidan aniqlagan holda unga yangi turlarini qo'shish orqali kengaytirish lozim. Voyaga yetmaganlar huqubzavarligi uchun tayinlanadigan jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini qo'llash institutini takomillashtirish masalalari yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni ko'rib chiqish lozimdir.

Nazoratga o'tkazish voyaga yetmaganga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va uning xulq-atvorini nazorat qilish uchun ota-onalarga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga yoxud ixtisoslashtirilgan davlat organiga javobgarlikni yuklashdan iborat;

Qayta tarbiya uyiga joylashtirish;

Terapevtik joylashtirish;

Elektron Monitoring. Sudya balog'atga etmagan bolani har doim bilak yoki to'piq bilaguzuk yordamida kuzatishni talab qilishi mumkin. Ularni ma'lum bir joyda cheklash talab qilinishi mumkin yoki bo'lmasligi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2022 yil 10-iyulgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘srimchalar bilan) Rasmiy nashr ‘ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazir ligi. ‘ T.: Adolat, 2022 y. ‘ 63b.
2. Pulatova Shaxzoda O‘zbekiston Respublikasida yuvenal yustisiyani rivojlantirishning ayrim masalalari.TDYU.—O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini takomillashtirish masalalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2017. 96-bet.
3. <https://legislationline.org/Belgium>
4. <https://www.senat.fr/lc/lc52/lc52'mono.html#toc19>
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: (2022 yil 10-iyulgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘srimchalar bilan) Rasmiy nashr ‘ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazir ligi. ‘ T.: Adolat, 2022 y. ‘ 31 b.